


O.U. ABDIMUROTOV

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA GEOGRAFIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI



960.
H-14.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDIMUROTOV OYBEK URALOVICH

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA
GEOGRAFIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI
TASHKIL ETISH METODIKASI

MONOGRAFIYA

14758/60 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«Olmaliq kitob busini»
TOSHKENT – 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 960;004;378

KBK 26.8

A-14

Monografiyada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida bayon etilgan, geografiya ta'limida mustaqil ta'limni tashkil etishning hozirgi kundagi holati va istiqbollari tahlil qilingan, talabalarga mustaqil ta'limni tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan, kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan mustaqil ta'limni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlantirish mexanizmlari, mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari hamda metod va vositalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarga geografiyadan mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasi, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarga geografiyadan o'quv materiallarini modullarga ajratib o'qitish texnologiyasi hamda geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo'llashning metodik tizimi yoritilgan.

Monografiya bakalavr, magistrant, ilmiy tadqiqotchi, o'qituvchi va geografiya o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

p.f.d. (DSc), dotsent **F.T. Rajabov**

Taqrizchilar:

g.f.d. (DSc) professor **A.K. Urazbayev**

p.f. d. (DSc) **X.N. Amonov**

ISBN 978-9910-8728-9-1

KIRISH

Mamlakatimizda nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, o'qitish jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Konsepsiyaga ko'ra, mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar ichida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Shuningdek, Konsepsiyada "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Jumladan, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning

zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan.

Respublikamizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, kishilarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ta'lim alohida o'rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida berib bo'lmaydi. Qo'yilgan muammo va vazifalar bo'yicha muayyan yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlab boriladi.

Ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishga umumiy yondashuvlar borasida xorijiy davlatlar olimlaridan: B.A.Abdikarimov, G.K.Axmetova, N.A.Asanov, Y.L.Artamonova, O.V.Boyev, G.N.Gamamik, G.G.Pivnya, A.A.Kusainov, S.R.Ibatulin, B.A.Mirzamiyev, S.M.Omirbayev, O.A.Sevostyanova, A.L.Chuchalina va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan: V.O'rinov, M.Sultonov, A.Umarov, B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullayev, G.A.Nazarqulovalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O'quv jarayonlari davomida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish masalalari yuzasidan xorijiy davlatlarda T.V.Gabay, G.S.Abramov, G.I.Aleksandrov, V.G.Razumovskiy, A.V.Usova, V.K.Buryak kabi olimlari

ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan bo'lsa, yurtimiz olimlaridan K.A.Tursunmetov, A.I.Xudayberdiyeva, V.N.Zoptova, S.M.Matjonov, V.M.Karimova, U.N.Sultonova, S.R.Abdalova, O.A.Qo'ysinov, M.U.Qo'chqarov, Sh.E.Eshonqulova, M.L.Boltayeva, S.B.Ibragimova, B.R.Muqimov, M.Murodova, N.R.Saitkulovalar kabi metadist olimlar ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning ilmiy asoslari, talabalarning mustaqil ishi, mustaqil fikrlash bilan erkin mashqlarni tashkil etish uslubi, mustaqil ishlarni tashkil etish asoslari, o'qitish vositalari, mustaqil ta'lim mazmuni va metodikasi, mustaqil ta'limning pedagogik-psixologik ahamiyati va shakllari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, yurtimizda geografiya o'qitish metodikasi sohasida M.Nabixonov, O.Mo'minov, T.Abdullayeva, P.Musayev, M.Yunusova, R.Qurbonniyozov, O'.Safarov, A.Xayitov, M.Abduraxmanov, Q.Bahromov, R.Gaypova, S.Matsaidova, F.Jumanova, X.Nikadamboyeva, F.Xamroyeva, A.Jonzakov, F.Saydamatov, M.Qo'ldasheva, X.Amanov, F.Rajabov, H.Shodiyev, D.Abdullayeva kabi olimlar tomonidan geografiyani o'qitish bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari olib borilgan.

Mustaqil ta'lim avvalo geografiya o'qituvchisidan, shuningdek talabalardan muayyan tayyorgarlik talab etadi. Mustaqil ishga talabalarni dars jarayonida oddiy, elementar ishlardan, sekin-asta murakkablashtirib o'rgatib borish lozim. O'qituvchi talabalarni dastlab darslik matni, illyustratsiyalari, topshiriqlari bilan ishlashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalanishga, rasm va chizmalar bilan ishlashga, spravochnik va lug'atlar, geografiya atlaslari oxiridagi nomlar ko'rsatkichidan foydalanishga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini ishlab chiqishga, biron geografik ob'yektga reja asosida tavsif berishga, konspekt tuzishga o'rgatib borish lozim. Yuqoridagi ishlarni bajarishga oid muayyan ko'nikma egallangach, talabalarga boshqa, murakkabroq mustaqil

ishlarni tavsiya etish mumkin. Agar talabalar mustaqil ishlarni bajarishga oid yetarli tayyorgarlikka, muayyan ko'nikma va tajribaga ega bo'lmасalar, ular mustaqil ishlarni bajarishda qiyinaladilar, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi.

I BOB. KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARIGA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

1.1. O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili

Har qanday ilmiy tadqiqot faoliyati, avvalo, o'z sohasi bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy ishlarni chuqur o'rganishdan boshlanadi. Bu jarayon, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va ilgari olingan natijalarni baholashni o'z ichiga oladi, chunki bu tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi. Ilmiy tadqiqotlar avvalgi ishlarning natijalarini ko'rib chiqish orqali yangi bilimlar yaratish va mavjud tushunchalarni takomillashtirish imkonini beradi, shuningdek, sohaning rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning tadqiqot ishimizning mavzusi geografiya ta'limiga oid bo'lganligi sababli, avvalo, O'zbekiston hududida geografiya o'qitish metodikasi sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va bu sohada faoliyat yuritgan tadqiqotchi olimlarning ilgari surgan ilmiy g'oyalari va gipotezalarini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratamiz. Ushbu jarayon, mavjud ilmiy ishlarni tahlil qilish va ularning metodologik asoslarini aniqlash orqali, geografiya ta'limining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha o'zbek olimlaridan birinchi fan nomzodi, geografiya ta'limi metodikasi sohasida Markaziy Osiyoda birinchi va yagona professor Ortiq Abdullayevich Mo'minov 1967-yilda "O'zbek maktablarida geografiya ta'limi masalalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, geografiya ta'limi metodikasidan pedagogika fanlari